

"O'zbekiston madaniyat merosi - yangi Renessans poydevori" IV Xalqaro kongressi

Ma'lumki, joriy yil 15-18-dekabr kunlari yurtimiz madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish maqsadida "O'zbekiston madaniy merosi - yangi Renessans poydevori" O'zbekiston madaniy meros haftaligi o'tkazildi.



Video-konferens-aloqa shaklida o'tkazilgan haftalik doirasidagi tadbirlarda 300 dan ortiq mahalliy va xorijiy olimlar, davlat, xalqaro va jamaot tashkilotlari vakillari, san'at arboblari, ijodkor yoshlar ishtirok etishdi.

Haftalik doirasida "O'zbekiston madaniy merosi - yangi Renessans poydevori" nomi ostida Butunjahon Jamiyatining IV Xalqaro Kongressi, "O'zbekiston - merosi: sivilizatsiyalar va Renessanslarning o'zaro ta'siri" loyihasi faoliyatining natijalari va istiqbollari taqdimoti, teatr aktyorlari ishtirokida yoshlar uchun tarixiy shaxslar timsoli aks ettirilgan spektakllardan parchalar namoyishi o'tkazildi.

